

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
*ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI "PEDAGOGIKA" FAKULTETI***

**“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo’nalishi
4-bosqich 403- guruh talabasi Mo’ydinov Tursunboyning**

**« Bino inshootlarning chizmalari va eksteryer dizayni
(Bino maketi misolida.)»
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Imiy rahbar:

X.B.Ismonov

Andijon – 2018

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-10
I-BOB. BINO VA INSHOOTLARNING CHIZMALARI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR.	
I.1 Bino –inshootlar va ularning chizmalari.....	11-17
I.2 Binolarga qo'yilgan asosiy talablar.....	18-26
II-BOB. BINO EKSTERYERI, INTERYER VA EKSTERYERDA ZAMONAVIY ELEMENTLARDAN FOYDALANISH.	
II.1. Bino interyeri va ekstryeri, ulardagi kompozitsiyalar	27-34
II.2. Ekstryerni badiiy loyihalash, naqshlash va zamonaviy elementlardan foydalanish.....	35-46
XULOSA.....	47-48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	49-50
ILOVALAR.....	51-55

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi: Birinchi prezidentimiz Islom Karimov respublika rahbari bo'lib ish boshlagan birinchi kunlaridanoq inson manfaatlarini, xalqimiz manfaatlarini eng asosiy ustuvor masala sifatida kun tartibiga qo'ygan edi. Buni I.A.Karimov 1989 yil 24 iyunda bo'lib o'tgan yig'ilishdagi nutqi yaqqol tasdiqpaydi. Ushbu nutqning asosiy qismi butun yurtimiz, jumladan, Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining o'tkir muammolarini xal qilish, xususan, odamlarni ish bilan, qo'shimcha daromad manbalari bilan ta'minlash, mahalliy muhandis texnik kadrlar, ishchilarni tayyorlash, yoshlarga e'tibor, ijtimoiy sohadagi adolatsizliklarga barham berish masalalariga bag'ishlangan edi.

Ma'lumki, XX asrning 60-yillaridan boshlab iqqisodiyotda ziddiyatlar ko'chayib bordi, amaldagi xo'jalik yuritish mexanizmlarining mazkur ziddiyatlarni bartaraf etishga noqobilligi namoyon bo'la boshlagan edi. Iqtisodiyotga sarf-xarajatlar ortsada, rivojlanish sur'ati keskin pasayib boraverdi. Ishlab chiqarishni texnikaviy rivojlantirishda va aholi turmush darajasida g'arb mamlakatlaridan ancha orqada qolish ko'zga tashlandi.

Milliy me'moriy obidalarimizni ta'mirlash , zamonaviy bezaklardan foydalanilgan bino va inshootlarni barpo etish bizning mutaxassislarimiz ham uddalay olishadi. Faqatgina buning uchun sharoitlar yaratilishi va e'tibor berilishi lozim edi.Yangi bilimlarni singdira oladigan yoshlarga sharoitlar yaratilishiga ham e'tibor qaratildi.

Ana shularni xisobga olgan xolda biz bugungi bitiruv malakaviy ishimizni asosan yurtimizni rivojlanishi va milliy madaniyatini hzida aks ettira oladigan bino inshootlarning dizayni va ulardagi zamonaviy elementlar,xususan ekster'er dizayniga bag'ishladik.

Xozirgi kunda ham prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan ilm-fan va san'atga, umuman olganda barcha soxalarga katta e'tibor berilib kelinmoqda.

Milliy madaniyatimizni, ma'naviyatimizni yuksaltirish borasida bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu esa bizni o'z maqsadlarimiz yo'lida ildam qadamlar bilan harakatlana olishimiz uchun asos bo'la oladi.

Mavzuni o'rganilganlik darajasi: 80-yillarning ikkinchi yarmida xalq ta'limi, oliy ta'lim tizimida ham sustkashlik, foizbozlik illatlari chuqur ildiz otib, milliy jihatlar inobatga olinmas edi. Manbalarga ko'ra, 1987 yilning sentyabrida respublikadagi jami maktablarning 5596 tasi (72,1 foizi) ikki smenada; 23 tasi hatto uch smenada ishlardi. 1178,7 ming o'quvchi ikkinchi smenada o'qir edi. 50 foiz maktab ta'lim-tarbiya muassasalariga mos bo'lmagan binolarda joylashgan edi. Ularda 1204 ming o'quvchi o'rni bor edi. Faqat 2812 (40 foiz) ta maktabda moslangan sport zallari, 22 tasida suzish basseyini, 1934 (25foiz) tasida sport turi mavjud edi. Qoraqalpog'iston Respublikasida 23,2 foiz, Navoiy viloyatida 25 foiz, Jizzax viloyatida 27 foiz, Qashqadaryo viloyatida 26,3 foiz, Samarqand viloyatida 21 foiz, Surxondaryo viloyatida 28 foiz maktab moslangan sport zallariga ega edi xolos. Qishoqlardagi 6273 maktabdan atigi 977 tasi (15,5 foiz) o'z tajriba xo'jaligiga ega edi.

80-yillarning oxirida respublikadagi maktablarning 700 ga yaqini tezlik bilan ta'mirlanishga muhtoj holatda edi. Xalq ta'limini mablag' bilan ta'minlashning „qoldiq“ tamoyili hali ham davom etayotgan edi. Respublikamizda tug'ilish ko'p bo'lgan holda, maktablar, ularning o'quv-moddiy bazasi yetishmas edi.

Maktablarning o'qituvchilar bilan ta'minlanishi ham yetarli darajada emas edi. Ayniqsa, ona tili, rus tili, matematika, fizika va boshqa bir qator fanlar bo'yicha o'qituvchilar yetishmas edi.

Maktablardagi ta'lim-tarbiyaning hayot bilan, ta'limning foydali mehnat bilan mustahkam bog'lanmagani, „pedagogik kadrlar nazariy tayyorgarligining pastligi, ta'lim-tarbiya vazifalari va asosiy tamoyillarini aniqlashda aniq o'lchovlarning ishlab chiqilmagani, berilayotgan va olinayotgan bilimlar

darajasining talablarga javob bera olmasligi o'quvchilarning bilimsizligiga, foizbozlikka olib keldi.

Masalan, Chilonzor rayon maktablari o'quvchilarining bilimi tekshirilganda, 173-maktabning 42,7 foiz o'quvchisi, 106-maktabning 42 foiz o'quvchisi fizika fanidan „qoniqarsiz" baho oddi. Maktablar bergan hisobotda esa o'zlashtirish 99 foiz deb ko'rsatilgan. Alohida fanlar bo'yicha olingan yozma ishlar natijasiga ko'ra bu maktablarda 10 dan 65 foizgacha o'zlashtirmaganlar borligi aniqlandi. 1984 yilda respublikamizdagi oliy o'quv yurtlariga hujjat topshirgan 74 ming abituriyentdan 36 ming nafar yigit-qizgina imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tdi. Maktablarni medallar bilan tamomlagan yoshlarning 32 foizigina o'ziga berilgan yuksak bahoni oqlay oldi.

Ayniqsa, ijtimoiy fanlarni o'qitishda yakka mafkura hukmronligi, dinga qarshi tarbiyaning kuchliligi, olinayotgan bilimlar bilan hayotda bo'layotgan voqealarning mos emasligi o'quvchilarda ishonchsizlikni vujudga keltirdi. Ta'lim sohasida ekstensiv rivojlanish asosida ish olib borildi. Iqtisodiyotdagidek maorifda ham „umumiylikka" e'tibor berildi. O'quvchilarning bilim olish darajasi ikkinchi o'ringa tushib qoldi. Asosiy e'tibor maktabni tugatuvchilarni hayotga tayyorlashga qaratildi. Xalq ta'limida ham buyruqbozlik, ko'rsatmabozlik avj oldi. Ta'lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash tizimidagi bu kamchiliklarni o'z vaqqida ko'ra olgan davlatimiz rahbari dastlabki kunlardanoq bu tizim rivojiga e'tibor qaratdi.

Birinchi prezidentimiz 1989 yilning 25 so'zlagan nutqida kadrlar tayyorlash ishiga muhim e'tibor qaratib, quyidagi fikrlarni bildirgan edilar: „Agar, iqtisodiyotimiz baquvvat bo'lsa, yaxshi rivoj topsa, bundan madaniyatimiz ham madad oladi, rivoj topadi. Agar ertangi kunimizni o'ylab ish qilmoqchi bo'lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib, ularning hayoti haqida qayg'uradigan bo'lsak, avvalo, mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutlaqo o'zgartirishimiz kerak. Mumkin qadar ko'proq iqtidorli yoshlarimizni Ittifoqning eng ilg'or korxonalariga, shu jumladan,

hatto, xorijiy mamlakatlarga, kerak bo'lsa, yangi texnologiya, yangicha ish tashkil qilishni o'rganish uchun Yaponiya, Amerikaga hamda boshqa joylarga yuborib, ularning o'qishiga, tajriba orttirishiga imkoniyat yaratish lozim. Iqtisodiyotimizni, hayotimizni o'zgartirish ana shularga bog'liq bo'ladi. Agar shuni qilmasak, bu yurishda katta yo'lga chiqishimiz qiyin bo'ladi.

Aytish kerakki, kadrlarni puxta qilib tayyorlamasdan, ularning qadriga etmasdan, ularga ishonmasdan va qo'llab-quvvatlamasdan, o'ylaymanki, biron-bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'zgartirib bo'lmaydi".

Bunday kadrlarga birlagan e'tibor albatta yurtimizni yanada ravnao' topishiga hzining salmoqli ijobiy ta'sirini ko'rsatadi deb ayta olamiz. Biz ushbu yo'nalishni tugatgandan so'ng yoshlarga tasviriy san'at va muhandislik grafikasi soxalari bo'yicha pedagog kadr bo'lib etishamiz. Biz tanlagan mavzu bo'yicha kelajak avlodni o'zining mustaqil tushunchasiga ega holda tayyorlay olish ham bizning qay darajada o'z soxamizni egallaganimizga bog'liq bo'ladi.

Bino – inshootlarning chizmalarini o'rganish umumta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari uchun o'quv yilining uchinchi , to'rtinchi choraklarida o'rganiladi. Umumiylikdan kelib chiqqan holda binolarning, xususan ularning tashqi ko'rinishlarini xozirgi zamon talablari asosida bezash borasidagi bilimlarni berib borish ham o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi deb xisoblaymiz.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari: Tarixga nazar tashlagan holda arxitektura va dizayn soxasiga, umuman ta'lim soxasiga bo'lgan qiziqishlarni yanada orttirish va zamonaviy elementlarni qo'llanilishini o'rganish. Biz mavzuni yoritishda qurilish, bezash bo'yicha bajarilgan ishlar va yangiliklarni o'rganib chiqdik. Lekin bu natijalarga erishguncha yurtimizda qanday harakatlar amalga oshirilganligini bilishimiz zarur bo'ladi.

1990 yil 5 iyunda davlatimiz rahbari ta'lim-tarbiyaga e'tibor qaratib, bu boradagi quyidagi vazifalarni ko'rsatib bergan edi: „Xalq ta'limi, yosh avlodga

ta'lim va tarbiya berish sohasi tubdan yangi yondashuvlar talab qiladi. Bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalari bilan ta'minlashda keskin burilishga erishish zarur. Uylardagi bolalar bog'chalari shoxobchalarini, konsultatsiya punktlarini, qishloqdagi bolalar bog'chasi-maktab komplekslari shoxobchalarini faollik bilan kengaytirish lozim.

Iste'dodli bolalar uchun maktab-internatlar tashkil qilish davom ettiriladi. Bolalar bog'chasi, maktab bilan bir qatorda bolalar poliklinikalarini, cho'milish havzasi bo'lgan sport maydonchalari, bolalar bilan maktabdan tashqari ish olib boruvchi muassasalarni o'z ichiga oladigan bolalar muassasalari territorial komplekslarini barpo etish xususida chuqur o'ylab, bu ishni boshlab yuborish o'rinli bo'lur edi".

I.Karimov e'tibor qaratib, orzu qilgan bu ishlar mustaqillik davrida qay holatga kelganini, amalga oshirilgan ishlar qanday samara berayotgaganini talabalarga aniq misollar bilan tushuntirib berish muhim ahamiyatga egadir.

I.A.Karimov ta'lim tarbiya va kadrlar tayyorlashning maqsad va vazifalari, ustuvor yo'nalishlari sohasida quyidagi yo'nalishlarni belgilab bergan edi.

- Bizga kadrlar tayyorlashning maxsus milliy dasturi kerak. Bu dastur:

- umumiy ta'lim maktablarida dars berish sifatini oshirish (o'qituvchilarni, metodistlarni qo'shimcha ravishda moddiy rag'batlantirish, maxsus sinfxonalar barpo etish, oliy o'quv yurtlarining maktablarni otaliqqa olishini yo'lga qo'yish va shu kabilar)ni;

- eng iste'dodli bolalar uchun maktablar ochishni;

- korxonalar bilan maktablar o'rtasida sifat jihatidan yangi munosabatlarni joriy etishni;

- hunar-texnika bilim yurtlarida xo'jalik hisobini joriy etishni va shu asosda ommaviy kasb kadrlarini tayyorlash sifatini keskin oshirishni;

- oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sistemasini qayta qurishni, bu sohaga kadrlar tayyorlashning buyurtma berish usulini joriy etishni;

— respublikaning yuqori malakali milliy mutaxassislarini tayyorlash uchun Ittifoqdagi va chet ellardagi eng yaxshi markazlarga yoshlarni yuborish sistemasini o'z ichiga olishi kerak.

Bu sohada hozirning o'zidayoq bir muncha ish qilinmoqda. Farg'ona davlat dorilfununini, Buxoro meditsina institutini, Nukus pedagogika institutini va shu kabilarni tashkil etish haqida qarorlar qabul qilindi..."

Keyinchalik 1997 yil 29 avgustdagi "kadrlar to'g'risidagi milliy dastur" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar yoshlarning yuksak salohiyatli bo'lib etishishlarida katta o'rin egallab kelmoqda. Xozirgi kunda biz yoshlarga katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Xatto bilim olishimiz xam konstitutsiyada belgilanib, davlat tomonidan kafolatlanmoqda. Shunday ekan biz bu yaratilib berilayotgan imkoniyatlardan O'zbekistonimizning yanada rivoj topishi va ravnaqi uchun bor kuchimiz bilan xarakat qilishimiz zarur bo'ladi.

Tanlangan mavzuning maqsadi ham kelajak avlodlarga bilim va tarbiya berishda bizning milliy madaniy meroslarimizni to'g'ri o'rgatgan holda ularning takomillashib borishi, binolarimizdagi turli bezaklar va ularni qo'llashning to'g'ri yo'llarini o'rgatib borish xisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti: O'zbekiston va jahondagi binolar va inshootlar. Ularning arxitekturasi, perspektivasi, bezaklari va zamonaviy arxitektura elementlari.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi: Ilmiy yangiligi shundaki, zamonaviy elementlardan foydalanilgan bino qurilishlarini o'rganish xozirgi zamon arxitekturasini o'rganish yoshlar uchun eng qiziqarli mavzu xisoblanib kelmoqda. Bu mavzuni o'z pedagogik faoliyatimizda o'rgatib borishimiz o'quvchilarni tasavvurini yanada kengayishiga sabab bo'la oladi.

Binolarning ekster'eridagi bezaklarni o'rganish esa o'z o'zidan yurtimizning chiroyiga chiroy qo'shuvchi binolarning yanada ko'rkamlashishiga xissa qo'shish imkonini beradi. Ilgarilari umumiy me'morchilik va ko'proq inter'er soxalarida

ishlar olib borilishi odatiy bo'lib qolganligi sababli bino ekster'eri ham binoning asosiy chiroyi va ko'rinishini ifodalovchi ekanligini xisobga olib, ushbu mavzuni yoritib berishga xarakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati: Yoshlarimiz uchun o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llash yanada yangidan-yangi elementlarni ixtiro qilish O'zbek arxitekturasini rivojlanishiga o'z xissasini qo'shish imkoniyatini beradi..

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: Bizni bugungi bitiruv malakaviy ishimiz “Bino inshootlarning chizmalari va ekster'er dizayni (Bino maketi misolida.)”-deb nomlanadi . Bitiruv malakaviy ish asosan ikkita bobdan tashkil topgan. Har bir bobni bo'limlar yoritib beradi.

Birinchi bob “Bino va inshootlarning chizmalari va ularga qo'yiladigan talablar”-deb nomlanadi va uni “Bino –inshootlar va ularning chizmalari” hamda “Binolarga qo'yilgan asosiy talablar” nomli bo'limlar ochib beradi. Ushbu bobda bino va inshootlar haqidi, ularni chizmalari,, arxitektura qurilish chizmalari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Shu bilan birgalikda bino va inshootlarga qo'yiladigan talablar ko'rsatib o'tilgan.

Ikkinchi bob “Bino eksteryeri, interyer va eksteryerda zamonaviy elementlardan foydalanish”-deb nomlanadi . Bu bob ham ikki bo'limdan tashkil topgan. Ular “Bino interyeri va ekstryeri, ulardagi kompozitsiyalar” va “Ekstryerni badiiy loyihalash, naqshlash va zamonaviy elementlardan foydalanish” bo'limlaridir. Ushbu bo'limlarda bobni va bitiruv malakaviy ishni asosan ochib berishga xizmat qiluvchi ma'lumotlar berib o'tilgan.

Shuningdek bitiruv malakaviy ishda xulosa , foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda kerakli ilovalar berib o'tildi.

Bitiruv malakaviy ishning metologik asosi: Men o'z bitiruv malakaviy ishida Tasviriy san'atda interyer va ekstryerning o'ziga xos tomonlari hamda ularda zamonaviy elementlardan foydalanish, xususan bino maketi orqali

binolarning ekster'eriga bezak berishni yoritib berishga xarakat qildim. Bunda ko'plab tasviriy san'at va chizmachilikka, perespektivaga, arxitekturaga oid adabiyotlar hamda internet ma'lumotlaridan foydalandim. Biz bilamizki tasviriy san'at o'ziing ko'plab janrlari, turlari, yo'nalishlariga ega. Biz ko'proq narsani o'ziga qarab chizish o'quvchini mukammal o'rganishi uchun asos bo'lishini barchamiz yaxshi bilamiz. Interyer va ekstryer xam ko'p xolatlarda mavjud xonani yoki binoni o'ziga qarab tasvirlanadi. Buni tasvirlashni o'ziga xos chizish bosqichlari mavjud bo'lib, bular xaqida ishimizda yoritib berishga harakat qildik. Shu bilan birgalikda O'zbekiston mustaqllikka erishgandan buyon ko'plab memoriy obidalarimiz qaytadan ta'mirlanmoqda va yangidan–yangi qurilish ishlari amalga oshirilmoqda. Muhandislik soxasiga qiziqish yoki talab tobora oshib bormoqda. Mamalakatimizda olib borilayotgan ko'plab ma'muriy va fuqorolik inshootlarining qurilishi, ularning dizayni va me'moriy elementlariga katta e'tibor berilmoqda. Xar bir bino yoki inshootlarni qurish uchun uning tasvirini, chizmasini chizib olib, so'ngra shu chizmalar, loyihalar yordamida qurilish ishlari amalga oshiriladi. Qurilayotgan binoni qayerga joylashishi, qaysi maqsadda qurilishidan tortib uning rangi va ko'rinishiga e'tibor berish zarur bo'ladi. Bezaklarda ko'plab zamonaviy elementlar, materiallar va bezak turlaridan foydalanilmoqda. Bu narsalarga butun dunyodagi yetakchi mamlakatlar qurilishi va dizaynida ahamiyat berib kelinmoqda. Shu qatorda O'zbekistonda ham bu borada yetakchi mutahassislar yetishib chiqmoqda va o'z mutahassisliklari bo'yicha faoliyat olib bormoqdalar. Bitiruv malakaviy ishimizda yuqoridagilarni barchasini yoritib berishga intildik.

Buning uchun avvalo tasviriy san'atning o'z tarixiga nazar tashlamog'imiz kerak bo'ladi.

I-BOB.

BINO VA INShOOTLARNING CHIZMALARI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR.

I-1. Bino –inshootlar va ularning chizmalari.

Biz bilamizki bino inshootlarni chizmalarini asosan arxitektura qurilish chizmachiligi fanida o'rganib boriladi. Umumta'lim maktablarida 9-sinf chizmachiligining oxirgi mavzulari arxitektura qurilishi chizmalari, sxema chizmalar va kompyuter grafikasi yordamida chizmalarni bajarishga qaratilganligi bizga ma'lum. Keyichalik esa kasb-xunar kollejlari va akademik litseylarda "Arxitektura qurilishi chizmachiligi" fan sifatida alohida o'tiladi. Bu fanda biz xozrda bitiruv malakaviy ish sifatida himoya qilayotgan bino-inshootlarning chizmalari va ularga qo'yiladigan talablar haqida umumiy va mukammal bilimlar berib boriladi va bu fan keyinchalik Oliy ta'limda davom ettiriladi. Quyida biz arxitektura qurilish chizmachiligi fanining maqsad va vazifalari hamda qurilish chizmalari haqida umumiy ma'lumot berib o'tamiz.

«Arxitektura» so'zi grek «archiecton» tilidan kelib chiqqan bo'lib «quruvchi usta» degan ma'noni anglatadi. Insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlarini arxitektura inshootlarida kuzatsa bo'ladi. Inshootlarni qulay (o'z davrining) ko'ra ayrim namunalari bo'lib kelmoqda. Ular shaharlarning umumiy ko'rinishini shakllantiradi. Qadimiy inshootlar asrlar davomida yer ostida qolib ketgan bo'lsa ularni arxeologik qazilmalar o'tkazilib kovlab topilib kelinmoqda.

Arxeologiya – bu qurilish san'ati bo'lib boliqni inshootlar orqali shakllari go'zallik qonuniyatlariga bo'ysingan holda aks ettirib quriladi. Qadimgi Rim arxitektura nazariyotchisi vitruviy, mustaxkamlik, foydali, go'zallik degan talablarni arxitektorlar oldiga shior qilib qo'yiladi. Hamma arxitektura inshootlari uch guruh xarakteriga ega bo'lgan sifatga bo'ysinishi kerak bo'ladi:

1.Funksionallik (qulaylik, foydalilik).

2.Konstruktiv (mustaxkamlik, tejamkorlik)

3.Estetiklik (shakllar, go'zallik).

Fikr aksini unda ifodalanishi.

Funktsionalligiga bu inshootning yashash yoki korxona uchun undagi xonalar soni va ishlatish maqsadlari, o'lchamlari, joylanishi hisobga olinib mo'ljallanadi. Binolarning turlari mamlakatni, jamiyatni iqtisodiy va siyosiy axvollariga qarab shakllanib boradi. Shu jumladan an'anaviy, milliy an'analar asosida ham shakllanib boradi. Ba'zi turdagi binolar o'z-o'zidan yo'q bo'lib o'rniga yaxshiroq, afzalroq va shakli o'zgarib barpo qilina boshlanadi.

Arxitektura inshootlari inson uchun xizmat qilib, uni yuqori saviyadagi badiiy dunyoning hosil qilib, o'rab turgan muhitni moddiy va ruhiy olamiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Binonining estetik qiymati uning tashqi va ichki ko'rinishini bir biriga mos bo'lishi bilan ifodalanadi.

Binoning tashqi ko'rinishi go'zalligini shakllarining umumiy bir-biriga mos kompozitsion bog'liqligiga ya'ni (tashqi va ichki) ko'rinishiga bog'liq. Umumiy kompozitsiyaga nisbatan binodagi peshtoqlar, balkonlar, oynalar va eshik romlar, naqsh unsurlari. Ijod qilishning rivojlanishi usullariga asoslanib quruvchi usta (arxitektor) uch yo'nalishini birga olib boriladi. Binoning rejasi (plani) tashqi ko'rinishi (fasadi) va qirqimi ichki va tashqi o'lcham nisbatlarining tengligini hosil qiladi.

Arxitektura jamiyatining estetik ideallariga va badiiy didiga qarab rivojlanadi. Arxitektura davr xarakterini o'zida aks ettiradi. Unga sotsial shart-sharoimtlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jamiyatning tizimi, ustivor ma'naviyat (ideologiya). Insoniyat rivojlanish tarixida har bir millatning go'zallik haqidagi o'zining tushunchasi va o'ziga xos namunalari bo'lgan. Ko'p hollarda qurilish texnologiyalari mahalliy materiallar va ularning xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ularning rivojlanishiga qarab qurilish texnologiyalar o'zgarib boradi.

Qadimgi grek inshootlari asosan marmardan iborat bo'lgan. Qadimgi Rimda esa pishgan g'ishtdan g'ishtdan foydalanilgan. Shu jumladan O'rta Osiyo qadimgi binolari ham pishiq g'isht yordamida bunyod etilgan.

Beton, gips ham ishlatilish qurilish kompozitsion rivojiga keng imkoniyatlar beradi. O'rta asrlarga kelib toshga ishlov berish texnikasi mukammallashib boradi. Uyg'onish davriga kelib yana ularning ustiga qoplanish yo'lga qo'yiladi. XX asrga kelib bu texnik usulni o'rnini temir beton konsruktsiyalar egallay boshladi. Shunday qilib bu o'zgarishlar davr talabi yangidan-yangi texnologiyalar, yangi turdagi qurilish materiallarini va iqtisodiy masalalarni hal etish natijasida o'zgarib ketaveradi. Jahon arxitektura qurilishining rivojlanish tarixini alohida-alohida qilib qarash to'g'ri kelmaydi. Uning bosqichma-bosqich rivojlanishini ko'rish mumkin. Bunda yangilikning eski usullar bilan qurish, o'rnini bosish, badiiy uslublar uning rivojiga milliylik ham katta xissa qo'shadi. Ma'lum davrni aks ettirgan uslub vaqti kelib yo'q bo'lib ketib uni qayta tiklash mumkin bo'lmay qoladi.

Arxitektura inshootlarining xarakteri asosan o'z ichigabajarish texnikasi, badiiy ko'rinishni yaxshi chiqishida quruvchining ruhiy holati, mahorati, bilim va geometrik sirtlarni qonun qoidalarini bilishga bog'liq. Ma'naviy holatiiga qarasak unda monumental san'at tasviriy va amaliy san'at, xaykaltaroshlikning san'atlarxitektura bilan xamoxang bir butun yaxlitligiga uzviy bog'liq va ularning qo'shilishi natijasida ya'ni san'at qorishmasi hosil bo'ladi.

Arxitekturani o'rab turgan muhit bilan bir butun ansamblni tashkil etishi, asosiy omillardan biri hisoblanadi. Inshootlarni o'rganganda uning qurilish tarixi, umumiy ko'rinishlari va xonalarning ko'rinishiga e'tibor berish kerak.

Arxitektura qurilish chizmalari asosan binoning plani, fasadi va qirqimi orqali tushunib olinadi va chiziladi. Binoning plani asosan uning deraza va eshik o'rtalaridan gorizontal tekislik bilan qirqilgan holatidir. U orqali ichki qism va qalinliklarni ko'ra olishimiz mumkin bo'ladi. Binoning qirqimi esa vertikal tekislik

bilan qirqilgan holati bshlib, bunda binoning bulundligi va qavatlarini ko'ra olishimiz mumkin bo'ladi. Binoning fasadi uning old ko'rinishidir. Binoning plan , fasad va qirqimi to'g'risida quyida kengroq ma'lumot berib o'tamiz.

Bino plani, fasadi va qirqimi chizmalari.

Markaziy Osiyoning qadimiy arxitekturasini. Uzoq vaqt davomida O'rta Osiyo, hozirgi O'zbekiston terretoriyasi, shu jumladan, Evropani Osiyo bilan va Osiyoni SHimoliy Afrika bilan birlashtirgan. O'rta Osiyo yillik tarixiga ega. Neolit davridan boshlab qabilalar qurilish ishlari bilan shug'ullanishgan. O'zigap xos bo'lgan tabiiy-iqlimiysharoitlarga ega bo'lgan Sirdaryo va Amudaryo vodiylarga odamlar ko'chib yashashgan. Bu erda erni sug'orish, sun'iy dexqonchilik, shaharlar paydo bo'ldi va rivojlandi, o'zining o'ziga madaniyati bilan mashhurdir. Hozirgi paytda eramizdan avvalgi 1 ming yillikdagi qadimgi rivojlangan tsivilizatsiyaning ko'proq mashhur katta zonalarini: Baqtriya (Amudaryo havzasi erlari), so'g'u yoki sug'diyona (Qashqadaryo va Zarafshon havzasi), Xorazm (Amudaryo va Orol bo'yi erlari), Parg'iyona (Farg'ona vodiysi), Choch yoki Shosh (Chirchiq-Angren oazisi). Arxeologlar ochgan o'sha davrning katta shaharlarida madaniyat va rangtasvirning birlashishi antik O'rta Osiyo me'morchiligining organik birligining namunasidir.


Xolchayondagi saroyning asosiy mehmonxonasining xaykaltaroshlikli bezashlar, Tokrak-qal'a, Dalvarzin tepa saroylaridagi devoriy xaykali kompozitsiyalar bunga misol bo'la oladi. VII-VIII-asr boshlarida hamma katta shaharlarda birinchi madrasalar, maschitlar, maqbaralar vujudga keldi. Hozirgi kungacha Buxorodagi Samoniylar maqbarasi saqlandi, u o'ziga erta o'rta asrlar davrining monumentlal arxitekturasini aks ettiradi.



Binoning plani va fasadi chizmalari orqali uning perspektiv tasvirini yasash mumkin bo'ladi. Buning uchun perspektivada chizmalarni yaqqol tasvirini chiqarishni ilishimiz zarur bo'ladi.


Arxitektura inshootlarining perspektiv tasvirini turli usullarda qurish.

Inshootning perspektiv tasvirini chizishni uning shakli, kuzatish nuqtasi va kartina tekisligining qanday olinishiga bog'liq. Shahar qurilish inshootlarining xarakteriga qarab ularning perspektiv tasvirini chizishda ulargayuqoridan qaraganni lozim bo'lib, kuzatish nuqtasini katta balanlikda olish qulay.

Ko'pqirrali yoki to'g'ri to'rt burchakli shaklga ega bo'lgan binolarning perspektiv tasvirini qurishda ustivor uchrashning nuqtalarini hisobga olinadi. Odatda ular bir biriga pparallel bo'lgan chiziqlarga ega bo'lib uchrashini nuqtalari bir erda bo'ladi. Bu chiziqlarbinolarni ustivor uchrashish nuqtavsiga ega. Yuqori qavatli inshootlarni perspektiv tasvirini ko'rishda uch asosiy ustivor uchrashish nuqtalari olinadi. Shakllarning perspektiv tasvirlarining buzilib ko'rinishini kamaytirish maqsadida qulay bo'lgan perspektiv qurish usulini tiklash lozim. Bu rasmda 1 qavatldi to'g'ri to'rt burchak shaklga ega bo'lgan uychaning perspektiv tasviri chizilgan. Bu shaklda ikki ustivor nuqtaga ega bo'lib, unda ikki ustivor uchratish nuqtalari F va F lar ishtirok etyapti. Bino fasadlariga nisbatan parallel ustivor nuqtalari tanlanadi va uychaning balandligini aniqlashda F dan foydalaniladi.







Bino va inshootlarning chizmalari biz yuqorida khrsatib o'tganlar asosida bajariladi. Xar bir binoning o'z plani, fasadi qirqimi va perspektiv tasviri u haqda umumiy ma'lumotni bera oladi. Shu bilan birga xar bir qismlarni alohida chuqurlashtirilgan holda o'rganishimiz ham mumkin bo'ladi. Lekin biz asosan ushbu yo'nalishni tamomlagandan so'ng umumta'lim maktablari va kasb-xunar kollejlari hamda akademik litseylarga dars beruvchi pedagog bo'lib etishamiz. Ushbu ta'lim maktablarida bino va inshootlarning biz yuqorida ko'rsatib o'tgan holatlarini yaxshi o'rgatib bera olsak, qolgan bilimlar ularni tanlagan soxalariga asosan oliy ta'lim muassasalarida chuqurlashtirilgan holda o'rgatiladi.

I-2. Binolarga qo'yilgan asosiy talablar.

Memorlik qadimdan ma'lum bo'lib, funksional vazifalarga xizmat qilishdan tashqari, jamiyatda mavjud g'oyalarni tashkil ettirishga, davlat va jamoat ehtiyojlarini qondirishga intilgan. Bu o'rinda bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temurning "Bizning qudratimizdan shubhang bo'lsa, biz yaratgan binolarga boq", - degan mashhur so'zlarini eslatish kifoya. Yoki Samarqanddagi Registon maydoniga tashrif buyurgan har bir kimsa, kim bo'lishidan qat'iy nazar, osmono'par minora va koshinkor peshtoqlarga tikilganida, hayolidan mazkur obidalarni qurgan memor va ustalarning istedodi va mahorati, ularni qurishga buyurgan hukmdorlarning qudrati to'g'risidagi fikrlar o'tishi shubhasizdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng boshqa sohalarda bo'lgani kabi me'morlikda ham katta o'zgarishlar ro'y berdi.

Mustaqillikka erishilgandan keyin tarixda birinchi marotaba 1995 yilda "Arxitektura va shaharsozlik" bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni amalga oshirish va bajarish jarayonida ko'p sohaviy imkoniyatlar paydo bo'ldi va shu asosda tarixni, madaniy boyliklarni, iqlimni, zilzila va umuman, hududimizga xos bo'lgan holatlarni e'tiborga olgan holda 148 ta milliy - davlat "Qurilish meyorlari va qoidalari" (KMK) ishlab chiqildi. Takidlash joizki, mustaqillikning birinchi yilidan va ayniqsa, oxirgi ikki-uch yil mobaynida shaharsozlik sohasiga e'tibor kuchayib kelmoqda.

Shaharsozlik sohasiga tegishli O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I. A. Karimovning "O'zbekiston Respublikasida arxitektura va shahar qurilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (2000-yil 26-apreldagi 2595-sonli), Vazirlar Mahkamasining «Arxitektura va qurilish sohasidagi ishlarni tashkil etish va nazoratni takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida» (2000-yil 27-apreldagi 165-sonli), «Shaharlar, tuman markazlari va shahar tipidagi poselkalarning bosh rejalarini ishlab chiqish va ularni qurish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» (2000-yil 14-avgustdagi 320-sonli), «Arxitektura va

shaharsozlik sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun rahbarlar va mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari (2000-yil 23-avgustdagi 329-sonli) fikrimiz dalilidir.

Mazkur qonunlar asosida oliy talim ikki bosqichda, bakalavriat va magistratura yo'nalishlarida amalga oshirilmoqda.

O'quv qo'llanmasida Respublikamizdagi kapital qurilishning, ayniqsa uy-joy qurilishi sohasidagi yutuqlari, hozirgi ahvoli, kelajak rejalari atroflicha yoritilgan. Bino va inshootlarning konstruktiv tizimlari, hajmiy-tarxiy yechimlari, ularning ahamiyati va konstruktiv loyihalash asoslari shu yo'nalishda Respublikamiz qurilish industriyasi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda yoritilgan.

«Arxitektura» fani «Bino va inshootlar qurilishi» yo'nalishi uchun asosiy hisoblangan qurilish texnologiyasi fani bilan bir vaqtda olib borilib bu yetakchi fanning maqsadlarini to'la amalga oshirilishiga qaratilgan.

Mazkur darslikda bino va inshootlar konstruksiyalarining xillari, xususiyatlari, ularning bino qurilishida tutgan o'rni, binolarning tarxiy - hajmiy yechimlari va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bayon etilgan.

Hisobiy raqamlar va ayrim ko'rsatkichlar Respublikamizda jahon standartlari asosida qurilish sohasidagi yangidan chop etilayotgan meyoriy va rasmiy hujjatlardan olingan. Bo'lajak quruvchilar ushbu fan asoslarini mukammal o'zlashtirmay turib qurilish konstruksiyalari, zamin va poydevorlar va hokazolarni o'rganishlari mumkin emas.

«Arxitektura» fani boshqa texnik fanlar bilan ham o'zaro bog'liqdir, ayniqsa qurilish konstruksiyalari, Zamin va poydevorlar, Temirbeton konstruksiyalari, qurilish texnologiyasi va h.k. fanning nazariy asoslari va prinsiplari ikki semestrga mo'ljallangan bo'lib, 72 soatlik maruzalar kursida bayon etiladi.

Hurmatli o'quvchi! Mazkur risola yordamida istiqlol me'morligiga bir nazar tashlab, o'tgan yillar davrida amalga oshirilgan ishlarning ko'lamini, ahamiyat va

mohiyatini chamalab ko‘rishga ehtiyoj sezildi. Zero, memorligimiz sohasida erishilgan katta yutuq, yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklarniig barchasini qamrab olish risola mundarijasidan o‘rin olmaganligini ta’kidlash joizdir. Shu bilan birga asrlarga teng bunyodkorlik ishlari bajarilganligi, respublikamiz shahar va tumanlarining bugungi qiyofasi tubdan ozgarib, go‘zallashib borayotganligi isbot talab qilmaydigan bir haqiqat ekanligi ham ma’lumdir.

Binolar inshootlar va ularga qo‘yilgan asosiy talablar

Qurilish amaliyotida ikki tushuncha, ya’ni “bino” hamda “inshoot” tushunchasi mavjud.

Jamiyatning moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun kishilar tomonidan bunyod etilgan hamma qurilmalar inshoot deyiladi. Kishilarning biron bir ish faoliyatiga mo‘ljallangan va moslashtirilgan, ichki fazoga - bo‘shliqqa ega bo‘lgan yer usti inshootlari bino deb ataladi.

Amaliy ish faoliyatida foydalaniladigan; binolarga aloqasi bo‘lmagan inshootlar injenerlik inshootlari deb ataladi. Bunday inshootlar to‘g‘onlar, ko‘priklar, televizion minora, tunellar, metro to‘xtash joylari, dudburonlar, suv va don mahsulotlari saqlanadigan katta idishlar va hokazolar, faqat texnik vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Binolarning ichki bo‘limini alohida xonalarga ajratish mumkin uy-joy xonasi, oshxona, sinflar, xizmat xonasi, sex va hokazolar. Bir hil balandlik darajasida joylashgan xonalar qavatlarini tashkil qiladi. O‘z navbatida qavatlararo yopmalar binoni balandligi bo‘yicha qavatlariga ajratib turadi.

Har qanday binoni bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan qism va elementlarga, ya’ni bir-birini to‘ldirib turuvchi va aniqlab beruvchi uchta guruhga ajratish mumkin:

- hajmiy rejalashtirish elementlari, ya’ni bino hajmining yirik qismlari qavat, alohida xonalar va hokazolar;
- konstruktiv elementlar, ya’ni bino tuzilishini aniqlab beruvchi qismlari poydevorlar, devorlar, qavatlararo yopmalar, tom va hokazolar;

- qurilish buyumlari, ya'ni konstruktiv elementni tashkil etuvchi nisbatan kichik qismlar g'isht, beton, oyna, po'lat armatura va hokazolar.

Shu bilan birga Har qanday bino quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- vazifasiga muvofiqligi, ya'ni bino qaysi jarayonga maqsadga mo'ljallangan bo'lsa, u shu jarayon talabiga to'liq javob berishi kerak yashash uchun qulay, dam olishga moslashtirilgan, mehnat qilishga qulay va hokazo;

- texnik tomondan muvofiqligi, ya'ni bino kishilarni tashqi ta'sirlardan past yoki yuqori temperatura, yog'ingarchilik, shamol va boshqalardan to'la asrashi, mustahkam va ustivor bo'lishi, ekspluatatsiya sifatlarini uzoq yil davomida saqlashi lozim;

- bino ko'rinishi me'morchilik va badiiylik talablariga mos holda tanlanish, uning tashqi eksteryer va ichki interyer ko'rinishi chiroyli, shinam, atrof-muhit bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak;

- iqtisodiy jihatdan qulayligi, ya'ni bino va inshoot qurilishida mehnat sarfini kamaytirish, qurilish materiallari hamda vaqtni tejash ko'zda tutiladi.

Binolar vazifasiga muvofiqligiga ko'ra ikki guruhga: asosiy va yordamchi vazifalarga mo'ljallangan binolarga bo'linadi. Masalan, maktab binosining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'qitishga mo'ljallangan, shuning uchun ham bu bino asosan o'qitish xonalaridan o'quv sinfi, laboratoriyalar va hokazolardan iborat bo'lishi kerak. Ammo bu binoda yordamchi vazifaga mo'ljallangan xonalar, ya'ni ovqatlanish xonasi ommaviy tadbirlar uchun mo'ljallangan xonalar, maktab o'qituvchilari va boshliqlari xonalari ham mavjud bo'lishi kerak.

Binoda asosiy va yordamchi vazifaga mo'ljallangan xonalarni bir-biri bilan tutashtiruvchi, kishilar harakatini ta'minlaydigan joylar ham bo'ladi. Bu joylar kommunikatsiya xonalari deb ataladi. Bularga koridorlar yo'laklar, zinalar, dahlizlar va boshqalar kiradi.

Binodagi xonalarning hammasida mo'ljallangan vazifani bajarish uchun

optimal, ya'ni muhit yaratilgan bo'lishi kerak. Muhit deganda juda ko'p omillar, ya'ni xonalarning shinamligi, asbob-uskunalarining qulay joylashganligi, havo muhiti holati temperatura va namlik, xonadagi havo almashinishi; tovush rejimi eshitishni ta'minlash va shovqindan himoya qilish; yorug'lik rejimi; kishilarni evakuatsiya qilish chog'ida harakat qulayligi va xavsizligini ta'minlash kabilar tushuniladi. Binoni loyihalashda bularning hammasini e'tiborga olish lozim.

Bu talablar binolarning har bir turi va uning xonalari uchun "Qurilish normalari va qoidalari" asosida amalga oshiriladi. Binoning texnik muvofiqligini butun binoga yoki uning ayrim elementlariga ta'sir etayotgan hamma tashqi kuchlar bo'yicha konstruksiyalarini hisoblash orqali aniqlanadi. Bu ta'sirlar tashqi kuch yoki muhit ta'siri ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Tashqi kuchlarga bino elementlari qismlarining xususiy og'irligi doimiy yuklar, uskunalar, kishilar, qor og'irligi, shamolning ta'sir kuchi muvaqqat yuklar, yer qimirlashi va okunalarining tasodifiy buzilishi avariyasi natijasidagi ta'sirlar va boshqalar kiradi.

Muhit ta'siriga esa temperaturaning ta'siri konstruksiya chiziqli o'lchamlarining o'zgarishiga olib keladi, atmosfera va tuproq namligi ta'siri konstruksiya materiali xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladi, havo oqimi yo'nalishining ta'siri xona ichidagi mikro iqlimning o'zgarishiga olib keladi; quyosh nuri energiyasining ta'siri konstruksiya material fizik-texnik xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladi, havo tarkibidagi agressiv kimyoviy birikmalar ta'siri konstruksiyalarning yemirilishiga va buzilishiga olib keladi, biologik ta'sir mikroorganizmlar va qurt-qumursqalar konstruksiyani yemiradi, bino ichidagi yoki tashqarisidagi shovqin ta'siridan xonaning normal akustik rejimini buzilishi kiradi.

Yuqorida keltirilgan ta'sirlarni hisobga olgan holda binolar mustahkamlik, ustivorlik va pishqlik uzoq vaqt buzilmaslik talablarini qondirishi kerak.

Bino mustahkamligi deganda uning tashqi kuchlar ta'siridan uzoq vaqt

buzilmasdan hamda ortiqcha deformatsiyaga uchramasdan o'z vazifasini bajarib turishi tushuniladi.

Binoni tashqi ta'sirdan o'z muvozanatini oqlab turishi binoning ustivorligi turg'unligi deb ataladi.

Qurilish normalari va qoidalariga KMK ko'ra binolar uzoq vaqt o'z vazifasini ado etishi bo'yicha IV darajaga bo'linadi:

I- xizmat davri 100 yildan ortiq;

II- xizmat davri 50 yildan 100 yilgacha;

III- xizmat davri 20 yildan 50 yilgacha va

IV - xizmat davri 5 yildan 20 yilgacha mo'ljallangan binolar.

Binolarga qo'yilgan asosiy texnik talablardan yana biri binoning yong'in xavfsizligidir. Qurilishda ishlatiladigan materiallar va konstruksiyalar yonish darajasiga qarab yonmaydigan, qiyin yonadigan va yonuvchan guruhlarga bo'linadi.

Bino konstruksiyalari olovbardoshlik chegarasi bilan ham harakterlanadi. Bu binoning olov ta'sirida o'z mustahkamligini, ustivorligini, saqlab tura olishi uchun ketgan vaqt bilan yassi konstruksiya elementlari uchun esa ularda teshik yoriqlar paydo bo'lishi yoki konstruksiyaning olovga teskari yuzasidagi temperatura 140°C gacha ko'tarilishi uchun ketgan vaqt bilan belgilanadi.

Bino va konstruksiyalarni olovbardoshligi jixatdan besh darajaga bo'lish mumkin. Eng katta olovbardoshlik I darajali binolarga, eng kichik olovbardoshlik esa V darajali binolarga tegishli bo'ladi.

Olovbardoshligi I, II va III darajali binolar tosh material yoki pishiq g'ishtdan qurilgan, darajali binolar esa sirti suvalgan yog'ochli, V darajalisi suvalmagan yog'ochli binolar hisoblanadi. Olovbardoshligi I va II darajali bo'lgan binolar devori, tayanchlari, ora yopmalari, ichki to'siq devorlari parda devor yonmaydigan bo'lishi kerak. Olovbardoshligi III darajali binolarda devorlari va tayanchlari yonmaydigan, ora yopmalari va ichki to'siq devorlari esa qiyin

yonuvchi bo'лади. Yog'och binolar IV va V darajali olovbardoshlikka ega bo'lib, yong'in xavfsizligi talablariga ko'ra ular ikki qavatdan baland bo'lmasligi kerak.

Bino loyihasini yaratishda iqtisodiy talablar bilan bir qatorda xonalarning katta-kichikligi va shakli jihozlari aholining talab va ehtiyojlariga mos kelishi ham e'tiborga olinishi kerak.

Texnik talablar masalalarini hal qilishdagi iqtisodiy muvofiqlik binoning mustahkamligi, ustivorligi va uzoqqa chidamligi t'minlanishi bilan bir qatorda I m² maydon sathi yoki I m³ bino hajmining narxi belgilangan qiymat chegarasidan oshib ketmasligini nazarda tutadi.

Bino narxini tushirish, uni ratsional planlashtirish va yuza sathini, uy hajmini hamda ichki va tashqi pardozi ishlarini belgilashda ehtiyojdan ortiqcha sarflarga yo'l qo'ymaslik hisobiga bino turi va ekspluatatsiya sharoitini hisobga olib eng qulay va optimal konstruksiyalarni tanlash, bino qurilishida fan va texnika yutuqlarini hisobga olib zamonaviy usullarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Binolar xalq xo'jaligi ahamiyatiga molikligiga va boshqa ekspluatatsion sifatlariga qo'yiladigan talablarga binoan to'rt klassga bo'linadi. I klass binolarga - yuksak talablarni qanoatlantiradigan, IV klass binolari esa eng oz talablarni qondiradigan binolar kiritiladi. Binolar I klassli bo'lishi uchun I darajali o'tga chidamli va uzoq vaqt o'z vazifasini o'taydigan bo'lishi, shu bilan birga, a'lo navli materiallardan qurilgan konstruksiyalari yetarligidan ortiqroq mustahkam bo'lishi, honalar shinam hamda yuqori sifatli pardozlangan bo'lishi kerak. Yirik sanoat korxonalarining binolari, yuqori ekspluatatsion va me'morlik talablari qo'yiladigan 9 qavatli va undan ham baland binolari I klassga mansub hisoblanadi. Kichikroq korxona binolari, balandligi 9 qavatgacha bo'lgan turar-joy va jamoat binolari II klassga kiradi. O'rtacha ekspluatatsion va me'moriy talablar qo'yiladigan, balandligi 5 qavatdan oshmaydigan turar-joy binolari III klassga mansubdir. Eng kam ekspluatatsion va me'moriy talablar qo'yiladigan muvaqqat vaqtinchalik imoratlar esa IV klassga kiritiladi. Binoning klassini loyiha tuzishni topshiradigan

tashkilot belgilaydi.

Binolar vazifasiga ko'ra grajdan turar-joy va jamoatchilik, sanoat va qishloq xo'jaligi binolari guruhlariga ajratiladi. Grajdan binolariga kishilarning maishiy va jamoatchilik ehtiyojlariga mo'ljallangan binolar kiradi. Bular turar-joy binolari yashash uchun qurilgan uylar, yotoqxonalar, mehmonxonalar va boshqalar va jamoatchilik binolari ma'muriy, o'quv, madaniy oqartuv, savdo, kommunal-xo'jalik, sport va boshqa binolar deyiladi.

Biror sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda mehnat jarayonini amalga oshirish uchun mo'ljallangan va ichiga ishlab chiqarish qurollari joylashtirilgan binolar sanoat binolari deb ataladi ustaxonalar, garajlar, elektrostansiyalar, omborlar, sex binolari. Qishloq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladigan binolar qishloq xo'jaligi binolari deb ataladi molxona, parrandaxona, teplitsalar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari saqlanadigan omborlar. Yuqorida keltirilgan binolar tashqi ko'rinishi va me'moriy konstruktiv yechimlari bilan bir-biridan keskin farq qiladi.

Devoriy materialga ko'ra binolar tosh devorli yoki yog'och devorli bo'lishi mumkin. Ko'rinishiga va katta-kichikligiga ko'ra esa mayda elementlardan g'isht, sopol blok, mayda blok qurilgan va yirik elementlardan yirik bloklar, panellar, hajmiy blok va hokazolardan qurilgan binolar bo'lishi mumkin. Qavatlar soniga ko'ra binolar kam qavatli 1-2 qavatli, o'rtacha qavatli 3-5 qavatli, ko'p qavatli 6-10 qavatli, juda baland 11-16 qavatli, osmono'par qavatlar soni 16 dan ham ko'p binolarga bo'linadi.

Joylashishiga qarab bino qavatlar yerdan yuqorida, sokol qismida, yerto'la qismida (podval) joylashgan va monsarddan iborat bo'lishi mumkin.

Qurilish texnologiyasiga ko'ra binolar: tayyor beton konstruksiyalardan yig'ilgan binolar, zavodda tayyorlangan industrial konstruksiyalardan montaj qilingan binolar, devorlari g'isht, mayda blok va shu kabi mayda elementlardan tiklangan binolar - turkumiga bo'linadi.

Keng tarqalganligiga ko‘ra binolar:

- andoza loyiha asosida quriladigan ommaviy binolar (turar-joy binolari, maktablar, maktabgacha muassasalar, poliklinikalar, kino-teatrlar va boshqalar);
- alohida loyihalar asosida quriladigan nodir binolar (teatrlar, muzeylar, sport binolari, ma’muriy binolar va hokazolar) kabi turlarga bo‘linishi mumkin.

II-BOB.

BINO EKSTERYERI, INTERYER VA EKSTERYERDA ZAMONAVIY ELEMENTLARDAN FOYDALANISH.

II-1. Bino interyeri va ekstryeri, ulardagi kompozitsiyalar.

Mustaqil O'zbekistonimizda juda ko'plab me'moriy obidalar mavjud. Bu esa yurtimizda me'morchilik sohasidagi yutuqlarimizni va mutaxassislarimiz malakalarini ko'rsatib beradi. Me'moriy obidalarning ichki va tashqi ko'rinish(interyer va ekstryer)ini bezash, loyihalash ham o'ziga xos muhim o'rinni egallaydi. Chunki yuksak mahorat bilan qurib bitkazilgan binoni kerakli bezaklar bilan bezatilmasa, u biz kutgan natijani, jozibadorlikni yoki binoni nima uchun xizmat ko'rsatishini ifodalab bera olmasligi mumkin. Bu borada mamlakatimizda ko'plab dizaynerlar, muxandislar o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar. Faqatgina chizma asboblari bilan chegaralanibgina qolmay, tasvirlarni va chizmalar bilan ishlovchi grafik muxarrirlar, dasturlar ko'payib bormoqda. Qurib bitkazilishi lozim binolarni oldindan qanday materiallardan foydalanib, qaday bezatilishini, umuman olganda bitgan holatini ishlay oladigan kompyuter dasturlari va ular bilan ishlay oladigan muxandislarimiz, mutaxassislarimiz soni ortib bormoqda.

Avvalo biz interyer va ekstryerning o'ziga xos tomonlari haqida qisqacha to'xtalib o'tishimiz kerak. Interyer va ekstryer rangtasvir san'atining alohida janri sifatida va o'z xolicha tarixiy, maishiy yoki boshqa voqealar tasvirlangan asarlarga fon sifatida xizmat qiladi.

Interyerning xarakterli jihati davrni, maishiy madaniyat darajasini ifodalaydi va me'morchilikda etakchi uslub hisoblanadi, shu sababli, rassomlarni doimo binolarning ichki va tashqi ko'rinishi ancha qiziqtiradi. Vaholanki, interyer va ekstryer so'zsiz joy egasining did-farosati haqida hikoya qiladi, muhit, (zavod tsehining o'rnashishi) hayotda texnik taraqqiyotining o'rnini haqida guvohlik beradi. Eshik va derazalarning o'rnashishi, ularning o'lchami va shakli, devor va

shiplarning bezaklari, parkent polning rasmi, pardalarning rangi va gullari, mebelning bezaklari - bular hammasi va boshqa ko'p narsalar shubhasiz davrni aks ettirish uchun rassomda katta qiziqish uyg'otadi.

Turar joy va ma'muriy binolarning interyerlari mohiyatan bir-biridan farq qiladi, bezaklari va me'morchilik belgilari turlichadir. Teatr interyeri rassomlarning turli davrlarda ishlangan asarlaridan qishloq uy xonalari, cherkov, saroylar va o'quv xonalari, yashash joylari va karvonsaroylar interyerlarini bilib olamiz. Ekstryer ham shu kabidir.

Interyer va ekstryer kompozitsiyasining asosiy jihatlari quyidagilardir:

Birinchidan, natyurmortdan farqli ravishda yuqorida aytib o'tganimizdek bu erda chiziqli va havo perspektivasi qoidalariga qattiq, amal qilinadi.

Ikkinchidan, u yoki bu uyning natyurmortdan farqi, ko'plab predmetlar, turli xil darajada, turli uzoqlikda, gorizontal xolda polda, vertikal yuza devorda (kartina, oyna, mebellar va boshqalar) joylashadi.

Uchinchidan, interyer rangtasviri o'zida arxitekturasining o'ziga mos tomonlarini oladi, har bir narsa metin karkas, kubatura ichidaligi xis qilinadi.

Xuddi shu xususiyatlardan kelib chiqib, rassom xususiy vazifalarni bajaradi: xomaki rasmlar, qoramalar, eskizlar bajaradi, interyer fragmentining ancha yaxshi ifodaviy izlanishlari sifatida burchaklar zaruriy xolda almashtirilib, o'ziga muhitdagi barcha predmetlarni bo'ysindiradi, mazmunli-kompozitsion markaz aniqlanadi.

Interyer va ekstryer kompozitsiyasida, predmetlar va arxitektura konstruktsiyalaridagi perspektiv qisqarishlar katta ta'sirini o'tkazadi.

Chiziqli kompozitsiyani aniqlashtirib borish bilan birga tonal echimlarni topish ustida, yoritilganlik sharoitini hisobga olgan xolda yorug'-soyali va rangli tasvirni kontrastlari ishlab boriladi.

Binolarning interyer va ekstererlarni turli kompozitsiyalari bilan bezatish.

Buning o'ziga hos usullari bor. Interyerni naqsh kompozitsiyalari bilan bezashda, honaning aniq o'lchamlari, yorug'likning roli rang koloriti, bezak turlarini o'rinli tanlash kabi masalalar asosiy o'rinni egallaydi. Xonaning o'lchamlari bo'yicha va shift yuzalariga naqsh kompozitsiyalarini chamalab, kichraytirib chiziladi. Tayyor bo'lgan kompozitsiya ahtasi haqiqiy kattalikda tayyorlanadi. Ekstryerlarni naqshlashda naqsh ishlanuvchi yuzalarni belgilab chiqiladi. Ekstryerlarning malum qisimlari ko'pincha garih va murakkab naqsh namunalari bilan naqshlanadi.

Ekstryer va interyerlarni naqlashda quyidagi tartibga amal qilinadi.

- binoning ichki va tashqi qisimlarini homaki naqshlarini chizish
- ma'lum o'lchamda kichraytirib chizilgan interyer va ekstryerlarning izora va yuqori qisimlari va tashqi bezaluvchi.

- yuzalariga mos naqash namunalarini belgilash.

- hosil bo'lgan homaki eskizlarni haqiqiy kattalikdagi rapportini chizish.

- tuzilgan naqsh namunalarining axtalarini tayyorlash.

O'zbek milliy binolarini naqshlashda ustalar har bir naqsh elementini jonli chiqishida, ona tabiatimiz go'zalligini ramziy mazmunlari yordamida tasvirlaydilar(rasm). Naqsh kompozitsiyalari qadimdan insoniyat ruhini ko'tarib kelgan. Bu hususida mashhur usta Shirin Murodov shunday degan edilar. "Naqsh kirgan uyga g'am – anduh kirmaydi". Halq ustalarining har bir naqsh kompozitsiyalariga etibor berar ekanmiz, naqsh elementlarining ravonligi, nisbati va uyg'unligini kuzatamiz.



Naqshli ekstryer.



Naqshli interyer.

Interyer va ekstererlarni naqshlanayotgan xonani foydalanishdagi maqsadi, munosib rang koloriti, naqsh uslublari va pardoiz turlariga alohida e'tibor beradilar. Binolar uchun tuziladigan naqsh kompozitsiyalarining ko'pdan ko'p turlari mavjud bo'lib, ular: *hoshiya, ruta, namoyon, friz, turunj, munabbat, chorsi, burchak, gardish, mehrob* va boshqalardir.

Binolarga naqsh kompozitsiyalari ishlashda, rang tuslarining ahamiyati katta. Qadimda milliy binolar to'q yashil – havo rang gammasida ishlangan. Ustalar naqsh kompozitsiyalarini to'g'ridan – to'g'ri qo'lda chizib bezab kelishgan. Bunday naqsh turlariga hoshiya, ruta, yakka bandli namoyon va shiftlarning bolur vassalari misol bo'la oladi. Katta yuza qisimlari qo'sh bandli naqshlar va girihlar mahsus tayyorlangan nusxa tushuruvchi axtalar yordamida bajarilgan.

Bino bezakchiligida eng ko'p qo'llaniladigan naqsh kompozitsiyalari namoyon naqshlaridir. Namoyon naqshlari o'zbek uylarining ayvon va mehmonhonalariga ko'plab chizilgan. Namoyon naqshlari guldasta, anor, majnuntol, geometrik naqsh kompozitsiyalari va ramziy naqshlar ishtirokida tuziladi. Hozirda naqqosh ustalar milliy san'atimizning rivojlanishida qadimiy naqsh bezaklari elementlariga zamonaviy ruh berib, ulardan o'rinli foydalangan holda yangi naqsh kompozitsiyalarini yaratmoqdalar. Ayniqsa usta naqqosh, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Anvar Ilhomov zamonaviy binolarga o'zbek an'anaviy naqshlarni bog'lagan holda kompozitsiyalar yaratib ranglar uyg'unligi, mayinligi ularning asta - sekin o'zaro yumshoq bog'lanib o'tishini taminladi. Shuningdek u naqqoshlikda unitilayozgan kundan te'nikasini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi.

Bino ekster'eri va interyerining xar bir memoriy qisimlari o'ziga hos naqsh kompozitsiyalari bilan bezatilib kelinadi. Ularga asosan islmiy, geometrik va murakkab singari naqsh kompozitsiyalari qo'llanilgan. Bino ichki devorlari uch qisimga bo'linib, pastki qismi izora, o'rta qism va tepa friz hoshiya qisimlariga bo'linib naqshlanadi. Devorning o'rta qismi namoyonlar friz qismi har hil

geometrik va o'simliksimon naqshlar bilan bezatiladi. Interyer devorlarini bezashda honaning balandligi, umumiy ko'rinish, yorug'lik tushishi va honaning turmushdagi o'rni hisobga olinadi. Interyerning qaysi rang tusiga hos ravishda naqshlaning ham muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, naqqosh ijodida eng masuliyatli ishlardan biri naqsh kompozitsiyalarini yaratishdir.

Naqsh kompozitsiyalarini tuzish, ma'lum qonun qoidalarini o'z ichiga oladi:

- naqsh elementlarini nisbatini saqlash;
- tanob bilan novdani farqlab tasvirlash;
- tanobdan gul barg va boshqa naqsh elementlarini o'sib chiqmasligi;
- o'lchamga mos naqsh kompozitsiyasini chizish va hakoza;

Tabiyat, atrof olamni rangsiz tasavvur etib bo'lmaganidek, naqsh kompozitsiyalarni ham rang tuslarisiz to'laqonli tasvirlash qiyin. Shuningdek, interyer va ekstererlarni naqsh bezaklari bilan bezashda rangshunoslik qoidalariga amal qilish albatta muhimdir. Interyer va ekstererlarning naqshlashda dast avval naqshning zamini ranglanadi. Rang tuslari hona devor bezaklariga xam ohang ravishda olinadi. So'ngra oraliq shakl yuzalari gul, novda, shukufta, barg elementlariga rang beriladi. Naqsh kompozitsiyalari ranglab olingandan so'ng, siyoh – qalam, targ'il usulida pardozi beriladi.

Interyer kompozitsiyasi. Tasviriy san'atda interyerni tasvirlash qiziqarli mavzulardan biridir. Interyer holati orqali xonadon sohibining didi haqida, yoki zavod tsexini jihozlanganiga qarab ilmiy taraqqiyot holati haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. Uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, polni bezagi va uy jihozlarining bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Teatrda interyer har tomonlama ichki jihozlari bilan estetik jihatdan zavod tsexidan farq qiladi. Zavodning metall quyish tsexini ko'z oldimizga keltiraylik. Katta tsex poliga yotqizilgan katta hajmdagi plitalar, relsda harakat qilayotgan og'ir kranlar, kumushsimon tutun orasidan tsexga tushayotgan

sun'iy yorug' yonidagi metall pishiriq qozondan ko'rinayotgan qizil lava va ko'k tutun kabi holati o'zini hayotiy go'zalligi bilan rassomni beixtiyor o'ziga tortadi.


Interyer mavzusida hayotning turli bosqichlarida ko'plab rassomlar ijod qilishgan ularning asarlari orqali o'sha davrdagi qishloq uylari, saroylarni ichki interyerlari orqali qanday holatda bo'lganini bilamiz. Ko'plab shunday realistik san'at asarlarida yozuvchi olimlarning, jamoat arboblarning xonalari tasvirlangan. Rassomlardan A. Venetsianovning, «A. Nekrasov portreti» dagi interyer, I. Kramskoyning «Arka tagidagi xona», I. Repining «L. Tolstoy ish ustida» ishlarini aytib o'tishimiz mumkin.

I. Repinning «Kutmagan edilar» kartinasidagi interyerda XIX asrning 80 - yillari ilg'or ziyolilarning tipik turmush - tarzi ko'rsatilgan. Natyurmortga nisbatan interyerda chiziq va havo perspektivasining hamma qonunlariga rioya qilinadi. Xonani ichki ko'rinishi natyurmortga nisbatan, har xil balandlikda va masofada joylashgan ko'p predmetlar gorizontaal pol va vertikal devor teksligida joylashgani bilan farq qiladi (mebel, deraza, kartina).



«Kutmagan edilar» . I.Ye.Repin

Interyer kompozitsiyasiga xonaning, predmetlarning konstruksiyasi perspektiva qisqarishi ta'sir ko'rsatadi, Shu bilan bir qatorda soya - yorug' sharoitlariga qarab tus va «kontrast» rang echimi ustida mashg'ulot bajariladi. Interyerda odam figuralari ishtirokisiz ham mavzuni chuqur ifoda etish mumkin. Misol uchun «Maktab kutubxonasi», «Sport zali» kabi kompozitsiya mavzulari bo'lishi mumkin. Undan tashqari «Rassom ustaxonasi», «Buvim xujrasi», «Mashina sozlovchi ustaxona» kabi mavzular yakunlovchi vazifa sifatida berilishi mumkin. Har ikkalasida ham dastlab interyerdagi mavjud predmetlarni sinchiklab o'rganib, xomaki chizgilar bajarib, interyer kompozitsiyasini tuzish maqsadga muvofiqdir.



Binoning ekster'erida ham shu kabi turli zamonaviy elementlar, naqshlar, bo'rtma tasvirlardan foydalanib bezaklar berilib kelinmoqda. Xozirgi kundagi yurtimizda barpo etilayotgan barcha bino-inshootlarni qurilishini boshlashdan oldin uning ish chizmalari hamda dizayni bo'liq ishlangan kompyuter grafikasidan foydalanib ishlangan kompozitsiyasi namoyish etilib, u asosida bino qurilmoqda va ta'mirlanmoqda. Bunday kompyuter grafikasi dasturlarining mavjudligi ham xali bitkazilmagan binolarning oxirgi tugagan xolatini ko'ra olish imkonini bermoqda. Bu esa texnika taraqqiyotining maxsuli desak adashmaymiz.

Umumta'lim maktablarining 9-sinflarida chizmachilik fani tugatiladi. Shu mavzular chikuni ham turli murakkablikdagi chizmalar va kompyuter grafikasini o'rganishga qaratilgan. Xozirdan zamon bilan hamnafas holatda biz ularni o'zlashtirib brishimiz va buni yoshlarga kerakli darajada etkazib bera olishimiz zarur bo'ladi.

II-2. Ekstryerni badiiy loyihalash, naqshlash va zamonaviy elementlardan foydalanish.

Biz yuqoridagi rejada ham neaqshlash to'g'risida qisman to'xtalib o'tdik. Bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi asosan bino inshootlarning ekster'eri dizayniga qaratilgan bo'lib, o'z navbatida biz binolarga bezak berish, inter'erda, xususan ekster'erda binolarga turli bezaklar berish va naqshlash , turli zamonaviy elementlardan foydalanish haqida ma'lumot berib ketishimiz joiz bo'ladi.

O'zbekiston xalq ustalari ijodida me'moriy bezak san'ati katta o'rin egallaydi. Binolarni guldor qilib qurish ananalari va mahalliy qurilish ashyolarining nafislik, badiiylik xususiyatlarini teran berish, shuningdek, O'rta va Yaqin Sharqda ganch-alibastr, turli xil tosh sopollarning keng tarqalganligi bu qadimiy san'atning mustahkam asosini tashkil etadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlarning olamga mashhur yodgorliklari o'rta asr rassomlari va me'morlari, naqqoshlari va xattotlari, o'ymakorlari hamda kulollarining yuksak mahoratidan dalolat beradi.

Sopol qoplamalar (jimjimador qilib g'isht terish, qo'shma va o'yma qizg'ish sopol, yorqin rang-barang koshin), naqsh o'yilgan tosh va marmarlar, me'moriy bezaklarning eng pishiq, ko'pga chidaydigan, shuningdek, eng ko'p mehnattalab qimmatbaho turlari bo'lib, deyarli barcha hollarda saroy, qasr, masjid, maqbara kabi qurilishlar bilan bog'liq. Naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi jozibali hamda bir muncha arzon bezak bo'lganligi sababli qariyb XX asrgacha kishilarning turar joylarini jihozlashda anchagina keng qo'llanilgan.



Eshik bezaklarida yog'och o'ymakorligidan foydalanish





Interyerda ganchkorlik va zamonaviy bezaklardan foydalanilish.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida hozirgi O'zbekiston hududida badiiy me'morchilik maktablari yuzaga kelgan. Ular nafaqat o'zlarining hajm-rejali kompozitsiyalari bilan, balki bezakli jihozlarning g'oyat nafisligi bilan ham diqqatga sazovor edilar. Bu maktablarning kompozitsiya uslubi va rang berishdagi farqni anglash uchun Farg'ona va Xorazm naqshu nigorlarini taqqoslashning o'zi kifoya. Farg'ona vodiysida chetlari chiroyli qilib aylantirilgan, ichiga islmiy shakl tushirilgan va qizil hamda yashil bo'yoqlar bilan jilolangan turunjlar afzal tursa, Xorazmda naqqoshlar butun yuzani geometrik naqshlar bilan to'ldirib, moviy va noranj rangli bo'yoq berishni xush ko'rganlar. Toshkent naqshlari esa o'zining nafisligi va ranglarning mayinligi, aniq bir koloritga qat'iy rioya qilinishi, geometrik va o'simliksimon naqshlarning ko'p ishlatilishi bilan ajralib turgan. Naqshlar ko'pincha yashil gammada ishlangan.

Turar joy binolarining devorlarida gulli butoqlar, daraxtlar, guldonli guldastalar aks ettirilgan, shiftlari esa turli-tuman naqshlar bilan

bezatilgan.Devorlar uzunasiga uch qismga bo'lingan; panel qismi, o'rta(enliroq) qismi va eng yuqori qismi, ya'ni friz.

Yirik hajmdagi naqsh kompozitsiyalari, odatda, devorning o'rta qismiga joylashtirilgan.Unvonli yozuvlarni xam aynan shu qismda bitish ko'zda tutilgan. Friz esa geometrik naqshlardan (girix) iborat bo'lgan.Devorlarning shiftga tutashgan joyida ganchli karniz - sharafa o'rnatilgan. Shift esa bir necha ayrim-ayrim bo'laklarga bo'linib, ular o'rtasi o'yib ishlangan ganchli qubbalar bilan bezatilgan.Bu joylar havzak deb atalgan. Havzaklarga turunjlar, islmiy yoki geometrik naqshlar tushirilgan. Xalq ustalarining binolarni bezashda qo'llagan bu usullari, odatda, barcha sajdagox va jamoatchilikka mo'ljallangan binolarda qo'llanilgan.




Havzakli tasvirlar

Bu toifa naqshlash ishlari quydagi tartibda olib borilgan; yaxshilab ishlov berilgan silliq yuzaga axta yordamida naqsh kompozitsiyasini tushirish va uni chizib chiqish,shundan keyin jilo berish boshlangan. Naqqosh xamma shakllarni mos ravishda ranglab bo'lgach,naqshlarni pardozlash (siyoh qalam, targ'il, taroq) bilan o'z ishiga xotima yasagan.

Mahalliy me'morchilikning arxitektura konstruktsiyalariga va detallariga tarkibiy bog'langan naqshlar butun inshoatga mukammallik va o'ziga xoslik baxsh etgan. Bu davrda yaratilgan naqshu nigorlar o'zlarining puxta mutanosibligi, ranglarining uyg'unligi va bichimlarining o'ta nafisligi bilan diqqatga sazovordir.

Yurtimizda mustaqillik qaror topgandan keyin, har sohada bo'lgani kabi o'zbek xalq Amaliy bezak san'atida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Sohaga e'tibor kuchaydi. Ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosimiz qadirlana boshlandi. Respublikamizga zamonaviy texnologiyalarni kirib kelishi natijasida arxitektura me'morchiligimiz batamom yangi ko'rinish kashf etdi. Baland, hashamatli bir-biridan chiroyli arxitektura inshootlari qurila boshlandi. Bu inshootlarni bezash albatta zamonaviy uslubda olib borildi. Lekin xalq ustalarimizning uslublari ham tadbiq etildi.



Yangi bezakdagi binolar.

Dunyoning eng chiroyli muzeylari ekstryerlari va ularda zamonaviylikni ifoda etilganligi.



Har birimiz go'zallikni turli tushunamiz, va ko'pgina muzeylar uning turli xil ta'riflariga to'g'ri keladi. Yaxshi muzeylar, tabiiy materiallardan yoki chirog'i o'zgaruvchan sirtidan foydalanib, u atrofidagi muhitning bir qismi bo'lib qoladi.

Ko'p go'zal muzeylar, o'zi joylashgan erlarni bezab, dunyoning turli chekkalaridan turistlarni o'ziga jalb etadi. Quyida dunyoning eng go'zal muzeylaridan biri ko'rsatilgan:



Muzey MAS, Antverpen, Belgiya



**Nelson-Atkinson san'at muzeyi,
Kanzas-Siti, AQSh**

Muzey MAS, Antverpen, Belgiya. Noytelings (Neutelings) va Ridijk (Riedijk) arxitektorlari, daryo qirg'oqlarida, turgan muzeyga, Hindistondan olib keltirilgan qizil qum va oynalari yordamida, zamonaviy ko'rinish baxsh etadi. Muzey dizayni Antverpenning eski portida qo'llaniladigan omborxonalarni eslatadi. Shuningdek, muzeyning 60 metrli binosiga yaqindan qarasangiz, 3185 ta kumush qo'llarni – Antverpen simvoli – ni ko'rishingiz mumkin. Vertikal “hiyobon” – binoning oynali spirali bo'yicha harakatlanadigan bir nechta liftlar,

gavan va barcha tomlarga bo'lgan ajoyib ko'rinishni ochadi va yarim kechagacha ochiq bo'lgan tomga olib chiqadi.

Nelson-Atkinson san'at muzeyi, Kanzas-Siti, AQSh. Avval, ohaktoshdan bajarilgan, neoklassitsizm stilidagi bino, 1930-yillarda qurilgan. 2007 yilda bu muzey qayta tiklangan bo'lib, u zamonaviy ko'rinishdagi shaffof oynadan qilingan, 5 kub yoki "linza" yordamida kengaytirildi. Ushbu "linzalar", "*Stiven Xoll*" (Steven Holl) tomonidan ishlab chiqilgan, maysazor burilishlarini takrorlab, atrofdagi landshaft bilan bir butunlikni tashkil qiladi.



Islom san'ati muzeyi, Doha, Katar

Bilbaodagi Geggenxaym muzeyi, Ispaniya

Islom san'ati muzeyi, Doha, Katar. Islom san'at muzeyi, an'anaviy islom arxitekturasiga yaqinlashtirilgan, o'zining sodda va shu vaqtning o'zida, dinamik dizayni bilan ko'rkamdir. Xira qum rangdagi toshlar, tun kelishi bilanoq uzun soya soladigan, beshqavatli minorani shakllantiradi. Xususiylar sun'iy orol gavaniga qurilgan, muzey kirish qismiga qator palma daraxtlari va sharshara olib boradi.

Bilbaodagi Geggenxaym muzeyi, Ispaniya. Aks ettiruvchi devorlari bilan o'ziga jalb etuvchi, *Frank Geri* (Frank Gehry) tomonidan loyihalashtirilgan muzey 1997 yilda ochilganida, u darhol Ispaniyadagi eng mashhur diqqatga sozovor joylardan biriga aylandi. Bino baliq teri kabi ko'rinishga ega bo'lgan, oynali, ohaktosh va titan panellardan ishlangan. Ularning organik qayilishlari chiroqni

tutib olish yo'sinida bajarilgan, 15 metrli atrium esa, bino tomida joylashgan, "metalldan yasalgan gul"dan chiqadigan, qisman chiroq bilan nurga to'ladi.



Xedmark muzeyi, Xamar, Norvegiya

**Ermitaj, Sankt-Peterburg,
Rossiya**

Xedmark muzeyi, Xamar, Norvegiya. Xedmark muzeyi "*Mesa*" oroli oldida 1.6 kv kilometrda joylashgan bo'lib, ochiq havodagi ko'rgazmani, 18 asrda qayta tiklangan uyi va ko'kalamzorli bog'ni aks ettiradi. Lekin muzeyning haqiqiy bezaklari bo'lib, qisman 1567 yilda vayrona qilingan, 1150 yilda qurilgan sobor xarobalari hisoblanadi. Bugungi kunga qadar saqlanib qolgan, to'rtta yirik arkalar, oyna va po'latdan yasalgan uchburchak tagida joylashgan. Bu joy to'y va boshqa marosimlarni o'tkazish uchun mashhur joy bo'lib qoldi, shuning uchun, ichkariga kirishdan oldin bir necha vaqt kutishga majbur bo'lishingiz mumkin.

Ermitaj, Sankt-Peterburg, Rossiya. Dunyodagi eng qadimgi muzeylardan biri bo'lib, Buyuk Ekaterina tomonidan 1764 yilda qarilgan, u 6ta binodan iborat bo'lgan kompleksni aks ettirib, Neva Daryosi va Saroy maydoni orasida joylashgan. "*Qishki saroy*" butun ulug'vorligi bilan gavdalanib, ba'zi hisoblashlarga ko'ra 1945 tacha oynadan iborat bo'lgan blokni egallaydi. Sobiq imperatorlik rezidentsiyasi ikki qavat kolonnalar, oltin gumbaz va barokko va rokoko stilidagi dabdabali galereyalar bilan bezatilgan.



Miluoki san'at muzeyi, Miluoki, AQSH

Orse muzeyi, Parij

Miluoki san'at muzeyi, Miluoki, AQSH. Keyinchalik “*Miluoki san'at muzeyi*” deya nomlangan, abstrakt ob’ekt “*Modernistlar kurashining xotira markazi*”, taniqli arxitektor *Eero Saarinen* (Eero Saarinen) tomonidan yaratilgan. U beton va po’latdan ishlangan salb ko’rinishida yasalgan bo’lib, u go’yoki pedestalda suzib yuradigandek. Muzeyning o’ziga xos tomonlaridan biri *Kuadrachchi paviloni*, tirgagichli va kengligi 66 metrga etadigan, qanot ko’rinishida quyoshdan saqllovchi soyabon o’rnatilgan, gumbazsimon tomli postmodernistik asar hisoblanadi. Kunining ma’lum bir vaqtida qanotlari ochiladi, tunda va bulutli kunda esa, yig’iladi.

Oskar Nimeyer Kuritiba muzeyi, Braziliya. Muzeyning rasmiy nomi braziliyalik arxitektor, 95 yoshli *Oskar Nimeyera* (Oscar Niemeyer) ismiga atab qo’yilgan, lekin uni, ko’pincha, shakli tufayli “*Ko’z muzeyi*” deb atashadi. Oynali “*Ko’z*” imorati 2002 yilda bitkazilgan bo’lib, u 18 metrli sariq ustunga tayanadi, “*Ko’z*”ning o’ziga esa, egilgan uzun trap bo’ylab etib borish mumkin. Tashqi sirtidagi doimo o’zgarib turuvchi osmon aksi va aks etuvchi hovuz, unutilmas ko’rinishni taqdim etadi. 1967 yilda qurilgan, hovuz tagidagi egilgan tunnel, imoratni asosiy bino bilan birlashtiradi.

Orse muzeyi, Parij. Senaning chap qirg'og'idagi orasta bino bo'lib, 1900 yilda, avval, temiryo'l stantsiyasi sifatida ochilgan va faqatgina 1986 yilga kelib, rasman muzeyga aylandi. Hayriyat, ilk arxitektur bezaklar va boz-ar stilidagi stantsyaining ulug' arkalar, hozirgacha saqlanib qolgan. Ichkarisida, egilgan bochkasimon oynali potoloklar, tabiiy chiroq asosiy zaldagi skulpturalarni nur bilan taratishga yordam beradi. Bu erdan, temir yo'l muzeyidan qolgan meros – katta metallardan ishlangan soat orqali Senani ko'rish uchun, kafeda to'xtashingiz mumkin.

Bunday muzeylardan yana ko'plab misol keltirishimiz mamkin. Arxitektura va dizayn rivojlanib borgani sari bino va inshootlarning qurilishi va dizaynida xam yangiliklar tobora ortib bormoqda. Binolarning xar birini dizayni, zamonaviy bezaklari uchun barcha talablar asosida zamonaviy texnologiyalar bilan bezaklar berib, qurilish ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Binolarning ekster'eri aytib o'tganimizdek, binolarning tashqi ko'rinishidir. Ularga bezak berish esa o'sha millatning , yurtning madaniyati, kelib chiqishi, tarixi va milliyligini o'zida aks ettirgan bo'ladi ko'p hollarda. Biz buni isbotini yuqorida izoxlab ketgan dunyoning go'zal binolari misolida ham ko'rib o'tdik. Kelgusi pedagogik faoliyatimiz davomida ham kelajak avlodga ushbuni o'ylagan holda arxitektura qurilish chizmachiligida, umuman chizmachilikdan yuksak e'tibor bilan bilim berib borishimiz kerak bo'ladi albatta. Bu borada biz xozrda ximoyaga olib chiqayotgan mavzuimiz menga ancha qo'l keladi deb xisoblayman.

Bitiruv malakaviy ishga amaliy ish sifatida taqdim etiladigan bino maketining bajarilish tartibi.

Bitiruv malakaviy ishimizga amaliy ish chifatida ikki qavatli bino maketini yasab chiqdik. Ushbu bino o'quv binosi uchun mo'ljallangan bo'lib, asosan uning ichki ko'rinishiga emas balki bitiruv malakaviy ishimizga mos holda ekster'erini


bezashga asosiy urg'uni berishga xarakat qildik. Amaliy ishni bajarishda ilmiy rahbarim va boshqa mutaxassis o'qituvchilarimizning maslaxatlarini oldim.

Birinchi bosqichda binoning chizmasini tayyorlab oldim va u asosida aniq o'lchamlar bilan bino tag qismi va devorlarining umumiy o'lchamdagi shakllarini kardon qog'ozdan bir biriga ulanuvchi holatda qirqib tayyorlab oldim. Keyin binoning umumiy tom qismi uchun kerakli shakllarni qirqib chiqdim. Shu qirqilgan shakllarni barchasini birlashtirib, binoning umumiy holatini ko'tarib oldim. Uni bir biriga ulashda keyinchalik umumiy holatini xam ko'tara oladigan holda maxkamlab chiqdim. O'zidagi mustaxkamlikka ham e'tibor berib, pastki qismlari va tom qismini bir biriga bog'lanishini ham e'tibor bilan bajarib chiqdim.

Binoimizning umumiy holati ko'tarilib bo'lgach unga bezak berish ishlarini boshladim. Bunda ushbu binoning tom qismi uchun kerakli materialni ifodalovchi rangli tasvirni tom qismiga elimladim. Devor va sokol, derazalar hamda umumiy binoimizni tashqi ko'rinishini chiroyli holatda ko'rinishini ta'minlovchi bezakli holatini yon qismlariga elimlab chiqdim.

Umumiy binoimiz joylashuvchi taglikni tayyorlab , unga fon berish ishlarini amalga oshirdim hamda binoni unga maxkamladim. Ushbu bajargan amaliy ishim xozirda ayrim kamchiliklarga ega bo'lgani bilan meni qurilish chizmalariga bo'lgan qiziqishimni yanada oshishiga sababchi bo'la oldi. Binoning har bir qismlarini tayyorlash va maxkamlash jarayonida uning o'lchamlari, nisbatlari va mosligi borasidagi muammolarni qiziquvchanlik bilan echishga muvaffaq bo'ldim. Kelgusida bundanda ko'rkam inshootlar chizmalari ustida ishlashni o'zimga maqsad qila oldim desam mubolag'a bo'lmaydi.





XULOSA.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyat samarali bo'lishi shartigina emas, balki ko'p jixatdan o'qituvchining muvaffaqiyatli ishlashi natijasidir. Shu munosabat bilan o'qituvchining o'zida pedagogik qobiliyatlarining aniq maqsadni ko'zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta rol o'ynaydi. Tajriba va maxsus tadqiqotlar buning batamom haqiqiy narsa ekanligini ko'rsatmoqda.

Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Chunki har bir kasb-xunar shaxsdan ifodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylilikni, chidam va sabr-toqatni talab qiladi. Barcha qiyinchilik va sinovlarga bardosh bera oladigan pedagog-o'qituvchilargina mazkur tanlangan kasbga nisbatan yaroqli deb topiladi. Ta'lim esa xuddi ana shuning amaliy tomonini o'zida aks ettirishimkoniyatiga ega. Ta'limni oqilona, optimal yo'l bilan tashkil qilish va olib borish turli yoshdagi maktab o'quvchilarida mehnatga ongli munosabatni tarkib toptirib, kasb-hunarga nisbatan qiziqish xissini uyg'otadi. Bu borada kasbiy maxoratning roli vao'zni katta hisoblanadi.

Biz xam kelgusi ish faoliyatimizda yuqoridagilarni amalga oshirgan xolda o'z pedpgogik faoliyatimzni olib borishimiz kerak bo'ladi. Xozirda yoshlarni o'rtasida arxitektura va dizayn soxasiga qiziquvchilar soni tobora ortib bormoqda. Bu soxani mukammal egallashda esa barcha fanlar qatorida tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini yaxshi o'zlashtirishi kerak. Buning uchun tasviriy san'atning tarixi, rivojlanishi, me'moriy obidalarimiz , ularga berilgan bezaklar, Perspektiva hamda bu soxalarda faoliyat olib borgan olimlarimiz ishlari bilan ham tanishishimiz zarur. Biz o'z biiruv malakaviy ishimizda o'quvchilarning shu qiziqishlarini va yuqorida aytib o'tilganlarni xisobga olgan xolda interyer va ekstryer, ularda zamonaviy elementlarning ifodalanishini ochib berishga xarakat qildik.

Men o'z bitiruv malakaviy ishimni bajarish jarayonida tasviriyl san'atning, Perspektivaning, me'morchilikning tarixini o'rganib chiqdim. Ularning rivojlanish bosqichlarini, ularda ishlatilgan bezaklarni o'rganishga xarakat qildim va bu soxalarda ko'plab izlanishlar olib borgan olimlarimizni misol qilib ko'rsatib o'tdim. Xozirgi kunda arxitektura va dizayn tobora rivojlanib bormoqda. Interyer va ekstryerni bezashda ko'plab materiallardan, yangidan-yangi bezak turlaridan foydalanilmoqda. Ularning loyixalarini bajaruvchi hamda chizmalarini chizuvchi juda ko'p kompyuter dasturlari ishlab chiqildi va amaliyotda qo'llanilmoqda.

Biz xam kelajakda o'z amaliy faoliyatimizda o'quvchilarga bunday yangi bilimlarni berish uchun tinmay izlanib, yangi pedagogik texnologiyalar, kompyuter dasturlari bilan ishlay oladigan mutaxassislar bo'lishga xarakat qilamiz .



Shaxsan o'zim ham ushbu kompyuter grafikasi dasturlarini o'rganib, chizmalarga va dizayn soxasiga bo'lgan qiziqishim aytarli darajada oshdi deb ayta olaman. Bu meni amaliy faoliyatimda xar tomonlama yordam beradi deb o'ylayman.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Islom Karimov. „O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: „O'zbekiston" NMIU, 2011 yil.
2. Ergashev Q. O'zbekistonda xalq ta'limi rivoji tarixi. - T.: „O'qituvchi", 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi qonuni “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Toshkent 1997-yil.
4. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori Toshkent sharq nashriyoti 1997-yil
5. Abdullaev N.U. “San’at tarixi” Tom-1, Toshkent, kituvchi, 1986 y.
6. Oydinov N. Tasviriy san’at tarixidan lavxalar. Toshkent, Ukituvchi 1997 y.
7. Abdullaev N.U. “San’at tarixi” T-1 Toshkent, O’qituvchi.
8. Abdullaev N.U. “San’at tarixi” T 2 Toshkent, San’at 2001.
9. Abdullaev N.U. “San’at tarixi” elektron o’quv qo’llanma 2005.
10. Abdullaev N.U. “San’at tarixi” Tema 1. Toshkent, O’qituvchi
11. Abdiev V.I. “Qadimgi Sharq tarixi”, Toshkent
12. Murodov Sh.K, Tojiyev R.J. Xolmirzayev A.A. «V.E Mixaylenko vo'dayuhiysya ucheno'y i chelovek s bolshoy bukvo'». Farg'ona, 1997.
13. Yodgorov J. va boshqalar. Chizmachilik. - T: 1992.
14. Ro'ziev E.I. Chizmachilik o'qitish metodikasi. –2001
15. Raxmonov I.T. Chizmalarni chizish va o'qish. – T., «O'qituvchi». 1992.
16. Abduraxmanov A. Perspektiva (ish daftari). “TDPU rizografi” 2005
17. Odilov P.O. Perspektiva. Toshkent, TDPU rizografi 2000 yil.
18. Rahmonov I. Perspektiva. T., «O'qituvchi», 1993 yil.
19. Valiyev A. N. Perspektiva. Toshkent, TDPU rizografi 2006 yil.
- Internet ma'lumotlari.**
20. Ziyonet.uz.

21. Ziyo.uz
22. Liveinterrnet.ru
23. Pixland.uz
24. www.metrofasad.ru

ILOVALAR:







Toshkentning go'zal binolari.



g'



